

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI

Qo'lyozma huquqi

UO'K: 336:656.073:005(575.1)

MAXMUDOV SAMARIDDIN BAXRIDDINOVICH

**LOGISTIKA TIZIMIDAGI KORPORATIV TUZILMALAR MOLIYASINI
BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Toshkent- 2026 yil

MUNDARIJA

	Kirish	3
I BOB	LOGISTIKA TIZIMIDAGI KORPORATIV TUZILMALAR MOLİYASINI NAZARIY–METODOLOGIK ASOSLARI	16
1.1.	Iqtisodiy tizimda logistika industriyasining o‘rni va ahamiyati.....	16
1.2.	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyasini boshqarishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari.....	32
1.3.	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyalashtirish tamoyillari va xususiyatlari.....	50
	1- bob bo‘yicha xulosalar.....	66
II BOB.	MILLIY IQTISODIYOTDA LOGISTIKA TIZIMIDAGI KORPORATIV TUZILMALAR MOLİYASINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	68
2.1.	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyaviy resurslarini shakllantirish samaradorligining tahlili.....	68
2.2.	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalarni moliyalashtirish jarayonini optimallashtirish algoritmini ishlab chiqish.....	84
2.3.	Logistika kompaniyalar ta‘minot zanjirini moliyalashtirishda raqamli ekotizimlar va moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlarini Panel ma‘lumotlari asosida yondashuvini baholash (Kontinental Yevropa mamlakatlari logistika kompaniyalari misolida).....	102
	2-bob bo‘yicha xulosalar.....	125
III BOB.	LOGISTIKA TIZIMIDAGI KORPORATIV TUZILMALAR MOLİYAVIY RESURLARINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	127
3.1.	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar kapitali tarkibi va unda xususiy kapital ulushini oshirish imkoniyatlari.....	127
3.2.	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar qarz kapitali tarkibi va uni optimallashtirish orqali moliyaviy natijalar samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	139
3.3.	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalarda aktivlarga ananslangan kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili.....	155
	3- bob bo‘yicha xulosalar	165
IV BOB.	LOGISTIKA TIZIMIDAGI KORPORATIV TUZILMALAR MOLİYASINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	167
4.1.	Logistika korxonalar moliyaviy natijalari samaradorligini optimallashtirishga makroiqtisodiy omillar va multiparametrlı moliyaviy ko‘rsatkichlar ta‘sirini nazariy-konseptual asoslanishi.....	167
4.2.	Logistika korxonalari moliyaviy natijalari samaradorligini oshirish omillari ta‘sir vaznini baholashning ekonometrik modellari va empirik tahlil natijalari.	180
4.3	Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar ichki moliyaviy salohiyati hisobiga moliyalashtirishda sof foyda ko‘rsatkichini prognozlashda ARIMA modeli yondashuvi.....	196
	4-bob bo‘yicha xulosalar	215
	XULOSA	217
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	223
	Ilovalar	249

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy sharoitlardagi global savdo va logistika infratuzilmasidagi tendensiyalar yuqori foiz stavkalari, geosiyosiy xavflar, dengiz yo‘llaridagi uzilishlar va raqamlashtirishning tezlashuvi fonida kompaniyalar aylanma kapitalga bo‘lgan talabni ortishi pirovardida logistik tuzilmalar moliyaviy ta’minot zanjirini¹ strategik darajada keng muhokama maydoniga aylanishiga olib keldi. Osiyo taraqqiyot banking tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, jahon savdosini tizimli moliyalashtirishdagi taqchillik (trade finance gap) 2024 yilda ham qariyb \$2,5 trldan ortgan². Bu ko‘lam uzoq muddatli o‘shish hamda ish o‘rinlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, taqchillikning avj olishi global moliyalashtirish tizimidagi qarz kapitali foiz stavkalari ortishi, riskni hedjirlash va inflyatsiya bilan izohlanadi. Xususan, “Allianz Trade” kompanyasining 2024 yilgi ma’lumotlari bo‘yicha jahon savdosini moliyalashtirishdagi taqchillik xususiy sektordagi kompaniyalar ishchi kapitali aylanish siklining (Working Capital Requirements, WCR) 2 kunga uzayib, 78 kunni tashkil qilganligini tasdiqlagan³. Ushbu holat 2008 yildan beri eng yuqori ko‘rsatkich sifatida etirof etilib, YEvropa tarmoqlari xususiy sektori moliyaviy barqarorligiga kuchli ta’sir etgan. J.P. Morgan Working Capital Index 2024 esa S&P 1500 kompaniyalari kesimida aylanma kapital siklini 2023 yilda 2,4 kunga uzayishi natijasida samaradorlik ko‘rsatkichlari pasayganligini ta’kidlagan⁴.

Shuningdek, global logistik tizim zanjiridagi uzilishlar moliyaviy bosimni ham kuchaytirgan, rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra 2024 yil yarim yilligida marshrutlar o‘zgarishi va sug‘urta operatsion xarajatlar ta’sirida konteynerlarni tashish tariflari 2023 yilga nisbatan qariyb ikki hissa ko‘proq ortgan⁵ va ushbu tendensiyani doimiy kuzatilishi jahon iste’mol narxlari indeksini 2025 yil ohiriga qadar 0,6 punktga ortishiga ta’sir qilishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Jahonning rivojlangan

¹ FSC, Financial Supply Chain.

² Asian Development Bank. (2023). 2023 Trade Finance Gaps, Growth, and Jobs Survey. Asian Development Bank.

³ Allianz Trade. (2025, June 18). 2025 Global DSO & Working Capital Report. Allianz Trade.

⁴ J.P. Morgan (Payments). (2024, August 1). Increasing efficiency: Working Capital Index 2024. J.P. Morgan

⁵ UNCTAD. (2024). Review of Maritime Transport 2024. United Nations Conference on Trade and Development

mamlakatlarida milliy va global logistik tarmoqlardagi kompaniyalar moliyaviy ta'minot zanjirini zamonaviy instrumentlar orqali optimallashtirish orqali ular moliyaviy barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, logistik xarajatlarni (fraxt, sug'urta, terminal va h.k.) optimal moliyaviy boshqarish tizimida revers-faktoring, L/C, SBLC, forfeyting kabi qisqa muddatli moliyaviy instrumentlaridan foydalanish masalalari keng tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, logistik tizim global moliyaviy ta'minot zanjirida yashil moliyalashtirishning zamonaviy usullari: yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, ESG asosida moliyalashtirish, Karbon offset, Yashil lizing va xalqaro grantlardan foydalanish ustida keng tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning muhim omili sifatida logistik ta'minot zanjirini moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida logistik tizimga oid bir qator masalalar muhim o'rinni egallaydi⁶. Xususan, ushbu strategyaga muvofiq, logistik tizim bilan bog'liq vazifalar sifatida "Logistika samaradorligi" indeksini bosqichma bosqich oshirish, 2030 yilgacha mamlakatning Jahon banki tomonidan hisoblanadigan logistika samaradorligi (Logistics Performance Index, LPI) bosqichdagi o'rnini 55-pog'onaning yuqoriga olib chiqish belgilangan. Shuningdek, xalqaro logistik tizim barqarorligini ta'minlashda bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini qulaylashtirish, deklaratsiyalarini inson omilisiz operativ rasmiylashtirishni ikki barobar oshirish, sun'iy intellekt asosida xavflarni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish ustuvor ahamiyati kasb etmoqda. Shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlashda yo'nalishlarida logistika xizmatlari sifati va tezligi muhim omil sifatida belgilangan. Agrologistika markazlarini tashkil etish (agrar sektor uchun logistika imkoniyatlarini kengaytirish) ham ko'zda tutilgan vazifalar qatoridan joy olgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabr, «O'zbekiston — 2030» Strategiyasi to'g'risida» PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

to'g'risida", 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-son "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2017 yil 2 dekabrda PQ-3422-son "2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-811-son "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqidagi", 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-812-son "Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.⁷ Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyasini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Makau fan va texnologiyalar universitetida (XXR), Lyuksemburg universiteti logistika va ta'minot zanjirini boshqarish markazi

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabr, ««O'zbekiston — 2030» Strategiyasi to'g'risida» PF-158-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

⁷ Macau University of Science and Technology. (n.d.). Research in green finance, logistics, and digital transformation. <https://www.must.edu.mo>, University of Luxembourg. (n.d.). Centre for Logistics and Supply Chain Management. https://www.en.uni.lu/research/fstm/centre_for_logistics_and_supply_chain_management, University of Luxembourg. (n.d.). Centre for Logistics and Supply Chain Management. Faculty of Science, Technology and Medicine. https://www.en.uni.lu/research/fstm/centre_for_logistics_and_supply_chain_management, University of Tennessee, Knoxville. (n.d.). Global Supply Chain Institute (GSCI). Haslam College of Business. <https://haslam.utk.edu/gsci/>, Technical University of Munich. (n.d.). Financial Supply Chain Hub and Digital Transformation Center. <https://www.tum.de/en/research>

(Lyuksemburg), Tennesi universiteti Global ta'minot zanjiri instituti (GSCI, AQSH), (Myunxen texnika universiteti, Germaniya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (O'zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyasini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarda qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: Logistika-transport industriyasida yashil moliyalashtirishning zamonaviy atributlari, raqamlashtirish jarayonlaining amaliy intrepretatsiyasi bo'yicha keng tadqiqotlar olib borilmoqda (Macau University of Science and Technology), Logistika, global ta'minot zanjiri va logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar ishchi kapitalini uzluksiz moliyalashtirishning innovatsion usullari keng tadqiq qilingan (Centre for Logistics and Supply Chain Management of the University of Luxembourg).

Dunyoda logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyasini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Logistika tizim global moliyaviy ta'minot zanjirida blokcheyn texnologiyalardan foydalanish orqali moliyaviy oqimlarni boshqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda (Global Supply Chain Institute (GSCI), University of Tennessee), Logistika tizim moliyaviy ta'minot zanjirida raqamli texnologiyalar va Fintex uslubiyotining zamonaviy instrumentlaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar (Myunxen texnika universiteti Myunxen texnika universiteti Moliyaviy ta'minot zanjiri xabi va raqamli transformatsiyalash markazi, Germaniya) tomonidan tizimli ravishda olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlar M. Hesse, M.McKinnon, J. Fabio, O. Anthony, Ch. David, Y. Kumar, C.Wang, G. Nagy, W. Zheng, I. Raposo, M. Khawaja,

F.Allen, S, Hehanussa, S. Zengin, R. Kumar, M. Bagajewicz, D. Dwight, F.Carapella va boshqalarni kiritish mumkin⁸.

Logistika tizimidagi korporativ tuzilmalar moliyaviy boshqaruvi masalalari yuzasidan MDH davlatlari iqtisodchi olimlari O, Koval, A.V. Zastupov, D. Ivanova, A.M. Patrusova, Yu. Aleskerova, E.G.Demidova, F.S. Mishkin, I.A.Blank, V.V. Kovalyov, E.S. Stoyanova va boshqalarning ilmiy izlanishlar olib borgan⁹.

⁸ Hesse, M., & Rodrigue, J. P. (2004). The transport geography of logistics and freight distribution. *Journal of transport geography*, 12(3), 171-184., McKinnon, A., 1988. Physical Distribution. In: Marshall, J.N. (Ed.), *Services and Uneven Development*. Oxford University Press, Oxford, pp. 133-159., Fabio, José, Buchedid, Vazquez., Hugo, Juliano, Hermógenes, da, Silva., Vander, da, Silva, e, Sousa. (2024). Indústria 4.0 na Logística 4.0. doi: 10.58951/dataset.2024.030, Anthony, O., O., Olabanji, O., M., D, Rameshwar. (2024). Impacts of industry 4.0 on supply chain management of logistics providers: A methodical review. *Global Journal of Engineering and Technology Advances*, 20(3):053-064. doi: 10.30574/gjeta.2024.20.3.0159, David, Chinalu, Anaba., Azeez, Jason, Kess-Momoh., Sodrudeen, Abolore, Ayodeji. (2024). Optimizing supply chain and logistics management: A review of modern practices. *Open access research journal of science and technology*, 11(2):020-028. doi: 10.53022/oarjst.2024.11.2.0083, Yogesh, Kumar, Saxena. (2022). Fast Tracking Track: A Road Map For Growing Economy of India. *Journal of Commerce and Trade*, 17(1):65-69. doi: 10.26703/jct.v17i1-11, Gábor, Nagy., Szabolcs, Szentesi. (2024). Green logistics: Transforming supply chains for a sustainable future. *Advanced logistic systems*, Zheng, W., Yang, B., & McLean, G. N. (2010). Linking organizational culture, structure, strategy, and organizational effectiveness: Mediating role of knowledge management. *Journal of Business research*, 63(7), 763-771, Raposo, I. G., & Lehmann, A. (2019). Equity finance and capital market integration in Europe. *Policy Contributions*. <https://www.econstor.eu/handle/10419/208031>, Khawaja, M., Bhatti, M. I., & Henry, D. (2019). On the role of ownership and governance structure in raising capital: A sukuk example (pp. 50-76). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780429262432-4>, Allen, F., & Qian, M. (2024). Alternative finance in the international business context: a review and future research. *Journal of International Business Studies*. <https://doi.org/10.1057/s41267-024-00739-x>, Hehanussa, S. J. (2024). Sustainable Finance Models: Building a Profitable and Responsible Business Economy. *Global International Journal of Innovative Research*, 2(9), 2124-2141. <https://doi.org/10.59613/global.v2i9.301>, Zengin, S. (2018). Re-define Product and Services Development: A Customer-Centric Perspective in Financial Services (pp. 311-330). Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-77622-4_16, Kumar, R. (2016). Discounted cash flow valuation models (pp. 145-185). <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-802303-7.00006-1>, Bagajewicz, M. (2008). On the use of net present value in investment capacity planning models. *Industrial & Engineering Chemistry Research*, 47(23), 9413-9416, Dwight D. Eisenhower, Remarks at the National Defense Executive Reserve Conference, Washington, D.C., 14 Nov. 1957 // *Public Papers of the Presidents of the United States, 1957*. — Washington, D.C.: National Archives and Records Service; Government Printing Office, 1958. — Б. 818. — ISBN 0160588510, Carapella, F., Dumas, E. B., Gerszten, J., Swem, N., & Wall, L. D. (2022). Decentralized Finance (DeFi): Transformative Potential & Associated Risks. *Finance and Economics Discussion Series*, 2022(057), 1-33. <https://doi.org/10.17016/feds.2022.057>

⁹ Олексій, Коваль. (2024). Theoretical bases of investment activity of transport and logistics enterprises. *Economic scope*, 151-156. doi: 10.30838/ep.194.151-156, Zastupov, A. V. (2023). Formation and Implementation of the Company's Investment Development Strategy (pp. 235-240). Springer Nature. https://doi.org/10.1007/978-3-031-38122-5_32, Иванова, Д. (2022). Sustainable economy and self-sufficient economic growth: challenges of neoclassical conceptualization. *Государственное и Муниципальное Управление*, 1(4), 197-202. <https://doi.org/10.22394/2079-1690-2022-1-4-197-202>, Patrusova, A. M. (2021). Personnel management in the context of the development of the digital economy. *Научный Результат*. <https://doi.org/10.18413/2408-9346-2021-7-3-0-6>, Aleskerova, Y., Kolomiets, M., & Karpinskyi, Y. (2024). Financial planning in the enterprise as a method of minimizing financial risks. *Інфраструктура Ринку*, 78. <https://doi.org/10.32782/infrastruct78-10>, Mishkin, F. S. (2015). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (10th ed.). Pearson Education., Бланк И.А. Управление финансовой безопасностью предприятия. Киев: Эльга-Н, 2017, Ковалёв В.В. Финансовый анализ: Управление капиталом. Выбор инвестиций. Анализ отчетности. 3-е изд. – М.: Проспект, 2017, Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент: теория и практика. 10-е изд. – М.: Перспектива, 2020, Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент: теория и практика (10-е изд.). Москва: Перспектива. 2020, Жумаев, М. (2022). ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА СОҲАСИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМИ. *Академические исследования в современной науке*, 1(15), 45-49., Alimov, I. (2025). Issues of using foreign loans in the development of the transport system in the Republic of Uzbekistan. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(4).

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan G. Samatov, Ya. Karrieva, K. Uldjaboev, T. Eshonqulov, M. Jumaev, I. Alimov mamlakat logistika sohasini boshqarish va moliyalashtirish samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratganlar hamda ularning ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida o‘z aksini topgan¹⁰.

M.P. Eshov, Sh.I. Mustafaqulov, A.K. Ibragimov, S.K. Xudoykulov, R.X. Karlibaeva, X. Kurbanovlar ilmiy ishlarida moliyalashtirishning nazariy va metodologik asoslarining ayrim jihatlari o‘rganilgan¹¹.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy

¹⁰ Samatov, G., & Burixodjayeva, M. (2024). Yetkazib berishlar zanjirida moliyaviy oqimlarning mohiyatini tahlil qilish. Вестник транспорта-Transport xabarnomasi, 1(3), 69-72., Karrieva, B. K. (2021). O‘ZBEKISTONDA LOGISTIKA VA TRANSPORT INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI. Academic research in educational sciences, 2(4), 1241-1245., Qo‘chqorovich, E. T. (2025). O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT VA LOGISTIKA SOHASI RIVOJLANISHINING MILLIY IQTISDIYOTGA TA‘SIRI. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 15(02), 203-205.

¹¹ Эшов, М. (2019). Корхоналарда молиявий фаолиятнинг пул оқими ўсишига ва пасайишига таъсирини баҳолаш масалалари. Экономика и инновационные технологии, (4), 70–80. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10848., Мустафакулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибadorлиги. Илмий-амалий қўлланма. /Ш.И. Мустафакулов. – Тошкент: Baktria press, 2017.- 33 бет”, А.К.Ибрагимов, Ризаев Н.К Молиявий ҳисобот ва пандемия. Молия ва банк иши журнали, 2020, 2-сон Худойкулов С.К. Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. дисс. автореферати. Т., 2019. 77 б., Карлибаева, Р. (2018). Использование классических теорий оптимизации структуры капитала в деятельности национальных акционерных обществ. Экономика и инновационные технологии, (2), 35–49. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/9687., Burkhanov, Aktam. "Иқтисодийнинг реал секторини молиялаштириш тизимини такомиллаштириш." Молия илмий журнали 2-сон 2016.Тошкент., Kurbanov, K. (2021). Zamonaviy iqtisodiyot qarashlar paradigmasida fillips egri chizig‘ining barqarorligi. Архив научных исследований, 1(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/100>

ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda 7 ta, mahalliy jurnallarda 9 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 222 betni tashkil etadi.